



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 181-185 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### 41-SON «QISHLOQ XO'JALIGI» BUXGALTERIYA HISOBI XALQARO STANDARTI QOIDALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI



**Yusupova Mahfuza Baxtiyor qizi**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 41-son «Qishloq xo'jaligi» buxgalteriya hisobi xalqaro standarti qoidalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Uzoq muddatli biologik aktivlar, qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti schyotlaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, buxgalteriya hisobi schyotlari, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, uzoq muddatli biologik aktivlar, qisqa muddatli biologik aktivlar, qishloq xo'jaligi mahsuloti.

**Abstract:** This article describes the possibilities of using the rules of the international accounting standard "Agriculture" No.41. Proposals and recommendations have been developed for the use of long-term biological assets, short-term biological assets and accounts of agricultural products.

**Key words:** agriculture, financial statements, international accounting standards, long-term biological assets, short-term biological assets, agricultural products.

#### Kirish

Mamlakatimizda xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashishga, raqamli va innovasion iqtisodiyotni rivojlantirishga, investisiyaviy muhitni yaxshilashga, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini joriy etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Qonunida «Xalqaro standartlar bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi» [1] deb qayd etilishi respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) qo'llanilishiga huquqiy asos bo'ladi.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining joriy qilinishi moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchligi va obyektivligini oshirish bilan bir qatorda xorijiy investisiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq shakllantirish hamda boshqa korxonalar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Agrar soha korxonalari samarali faoliyat yuritishlari uchun ularda hisob-kitob ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilishi hamda boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan o'z vaqtida va

to'liq hisob-kitoblar amalga oshirilishi talab etiladi. Tadqiqotning maqsadi biologik aktivlarni tan olish masalasiga iqtisodchi olimlarning yondashuvlarini o'rganish, biologik aktivlar hisobini tashkil etishning xususiyatlarini ochib berish asosida xulosalar shakllantirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Qishloq xo'jalik korxonalarini boshqarishda asosiy axborot bazasi buxgalteriya hisobi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan tashqi foydalanuvchilar hamda korxonaning ichki boshqaruvchilari obyektiv iqtisodiy qarorlar qabul qilishi va amaliyotga tatbiq etishi uchun zarur axborotga bo'lgan talablarini ta'minlashi lozim. Bu qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobini takomillashtirishni, ya'ni uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)da umumqabul qilingan talablar va prinsiplarga moslashtirishni taqozo etadi.

### Adabiyotlar sharhi

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos hisob obyektlaridan biri bu biologik aktivlardir. «Biologik aktivlar» tushunchasiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hamda iqtisodiy adabiyotlarda quyidagicha ta'rif, yondashuv va fikr-mulohazalar bildirilgan. 41-son «Qishloq xo'jaligi» BHXSda: «Biologik aktiv - bu tirik hayvon yoki o'simlikdir». Shuningdek, «Biologik aktivlar guruhi - bu o'xshash tirik hayvonlar yoki o'simliklar umumlashmasidir» [2] deb ta'rif berilgan.

41-son BHXSda biologik aktivlar tarkibiga quyidagilar kiritilgan: qo'y, chorva moli, cho'chqalar, o'simliklar, daraxtzordagi daraxtlar, buta o'simliklari, uzum daraxtlari, mevali daraxtlar. Xorijlik iqtisodchi olimlar S.B.Jabueva va I.B.Sirenovalar fikricha «Biologik aktivlarga o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar, yosh chorva mollari, mahsuldor va zotdor chorva mollari, arilar, baliq va boshqalar kiradi» [3]. 41-son BHXSga muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlari hosilni yig'ishtirish paytida tan olinadi. So'ngra 2-son «Zaxiralar» nomli BHXSga muvofiq haqiqiy bahosi bo'yicha tovar-moddiy zaxira (TMZ) sifatida hisobga olinadi. Hosilning yig'ib olinmagan qismi esa «biologik aktiv» sifatida hisobda aks ettiriladi. Shunday qilib, qishloq xo'jalik mahsulotlari hosilni yig'ishtirish paytigacha biologik aktivdan ajratib hisobga olinmaydi. 41-son BHXSda biologik aktivlarni tan olish qoidalari keltirilgan bo'lib, aktivlarni tan olish bo'yicha BHXSlarining umumiy tamoyillariga to'la mos keladi. «Aynan biologik aktivlar agrar korxonadan tomonidan quyidagi hollarda tan olinadi: a) faoliyat natijasida hosil bo'lgan aktivning korxonadan nazoratida bo'lishi; b) kelajakda korxonaga aktiv bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy naf olinishi; v) aktivning haqqoniy qiymati yoki tannarxini yetarli darajadagi ishonchlilik bilan o'lchash (aniqlash)» [2].

Xorijlik iqtisodchi olim U.V.Fastova aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda quyidagi uslubni taklif etadi: «qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ib olish vaqtida; ulardan chiqqan chiqindilarni o'g'itlar sifatida; shuningdek ishlab chiqarishdan olingan ozuqa sifatida foydalanishda; ma'lum zotdagi hayvonlarni bir xil yosh va foydalanish yo'nalishida; va ko'p yillik ekinlar» [4].

Xorijlik iqtisodchi olimlar A.T.Makulov va N.A.Boyboltaevlar ta'kidlashicha, aktivni biologik aktiv sifatida tan olish uchun 41-son BHXSga quyidagi qo'shimcha mezonlarni kiritish lozim. «- aktiv korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilishi shart; -aktiv boshqa korxonalarga berilishi yoki ijaraga qabul qilinishi mumkin» [5]. Umuman olganda, haqqoniy qiymatni to'la ishonch bilan hisoblash imkoni bo'lmagan

hollarda biologik aktivlar to'plangan amortizasiya va ularning qadrsizlanishi bilan bog'liq yo'qotishlar summalari chegirib tashlangan holda tannarxi bo'yicha baholanishi lozim. Haqqoniy qiymatni ishonch bilan aniqlash imkoni vujudga kelganda biologik aktivni darhol haqqoniy qiymat bo'yicha baholash zarur. Fikrimizcha, biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash va keyinchalik ularni shu qiymat bo'yicha tan olish uchun korxonada ayni vaqtda mavjud bo'lgan va imkon doirasidagi barcha resurslarni jalb qilishi lozim. Shunday qilib, respublikamizdagi amaldagi buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarda biologik aktivlarni alohida hisob kategoriyasi sifatida hisobda aks ettirish zaruriyati paydo bo'ldi, deb hisoblaymiz.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

41-son «Qishloq xo'jaligi» buxgalteriya hisobi xalqaro standarti qoidalaridan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilish jarayonida kuzatish, monografik tadqiq qilish, mantiqiy va qiyosiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Bugungi kunda respublikada amalda bo'lgan buxgalteriya hisobi milliy standartlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda biologik aktivlarning iqtisodiy mazmuni ochib berilmagan va ular hisobini tashkil qilish bo'yicha talablar belgilanmagan. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham aynan biologik aktivlarning mohiyati, ularni tan olish va hisobini tashkil etish masalalari deyarli o'rganilmagan va ilmiy asarlarida yoritilmagan.

Bugungi kunda 41-son BHXSda belgilangan talablarni bajarish iqtisodiy faoliyatning dolzarb masalalarini yechishda muhim hisoblanadi. Bu esa, mamlakatimizda ham mazkur tarmoqning xususiyatlarini hisobga oluvchi talablar belgilangan buxgalteriya hisobining milliy standartlarini qabul qilish shart-sharoitlari paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Qishloq xo'jaligi - bu inson faoliyati, tabiiy-iqlim omillari va xo'jalik yuritish sharoitlari, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabi turli xil harakat va voqealar ta'sir qiluvchi tarmoqdir. Qishloq xo'jaligi hisobiga tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: - ishlab chiqarishning uzoq muddatlilik tabiati; - buxgalteriya hisobida xarajatlarni farqlash (chegaralash)ning zarurligi - ichki xo'jalik muomalasining barcha bosqichlarida mahsulotlar harakatini aniq aks ettirish; - ishlab chiqarishning mavsumiyliigi; - qishloq xo'jaligi korxonalarini tashkiliy-huquqiy shaklining xilma-xilligi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari o'simlikchilik va chorvachilikdan iborat.

41-son «Qishloq xo'jaligi» nomli buxgalteriya hisobotning xalqaro standartlari (BHXS)ga muvofiq korxonaning asosiy vositalari tarkibida hisobga olingan: ishchi hayvonlar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini olish bilan bog'liq bo'lmagan holda saqlab turiladigan hayvonlar (sirk, zoopark, qo'riqxonada hayvonlari va shu kabilar), qishloq xo'jalik mahsulotlarini olish rejalashtirilmagan bir yillik va ko'p yillik o'simliklar (manzarali gullar, butalar, ihota daraxatzorlar va boshqalar) biologik aktivlar sifatida tan olinmaydi. Biologik aktivlar hisobini tashkil etishda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biologik aktivlar hisobini tashkil etishning quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim: - biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning ishlab chiqilishi va schyotlar rejasi tarkibiga kiritilishi; - biologik aktivlar hisobi bo'yicha schyotlarning joriy davr uchun boshlang'ich qoldiqlarining to'g'ri shakllantirilishi; -

xo'jalik yurituvchi subyekt hisob siyosatida biologik aktivlarni baholashga nisbatan davrdan davrga izchillikning mavjudligi. Biologik aktivlar hisobida chorva mollarining kirim qilinishi bo'yicha muomalalarning (nasl olinishi, qo'shilgan vazn, guruhdan-guruhga o'tkazilishi, xarid qilish va boshqalar) haqqoniyligiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda boshlang'ich, analitik va sintetik hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish dolzarb hisoblanadi. Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish maqsadida birinchidan, biologik aktivlarni asosiy vositalar tarkibidan ajratgan holda alohida «Uzoq muddatli biologik aktivlar» hamda joriy aktivlar tarkibiga kiruvchi qismini «Joriy biologik aktivlar» sifatida hisobga olish va uning tarkibini belgilash lozim. Chunki, ishchi hayvonlar, meva beradigan ko'p yillik o'simliklar biologik aktiv hisoblansada, ularning hisobi 16-son «Asosiy vositalar» [6] nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti bilan tartibga solinadi.

Ikkinchidan, biologik aktivlarni hisobga olishda foydalanish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlar hisob siyosatining ishchi schyotlar ilovasiga quyidagi ishchi schyotlarni kiritgan holda shakllantirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-jadval).

#### 1-Jadval

#### Biologik aktivlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan schyotlar tizimi

| Amaldagi 21-son BHMS bo'yicha   |   | Taklif*   |
|---|---|---|
| 0100-Asosiy vositalar   |   | Uzoq muddatli biologik aktivlar                                       |
| 0170  | Ishchi va mahsuldor hayvonlar                     | O'simliklar (uzoq muddatli)   |
| 0180  | Ko'p yillik o'simliklar                           | Hayvonlar (uzoq muddatli)   |
|   |   | Biologik aktivlarning eskirishi (uzoq muddatli)                       |
|   |   | Biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv (uzoq muddatli)  |
| 1100 - O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar |   | Qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti       |
|   |   | O'simliklar (qisqa muddatli)  |
| 1110, 1120  | O'stirishdagi hayvonlar<br>Bo'rdoqidagi hayvonlar | Hayvonlar (qisqa muddatli)  |
|   |   | Yig'ish paytidagi qishloq xo'jaligi mahsuloti                         |
|   |   | Biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv (qisqa muddatli) |

\* schyotlar raqami xo'jalik subyekti tomonidan ishlab chiqilgan ishchi schyotlar rejasiga muvofiq shakllantirilishi mumkin

Mazkur schyotlarning amaliyotda qo'llanilishi natijasida, buxgalteriya hisobi yuritilishini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirish nuqtai-nazaridan yangi hisob obyekti sifatida biologik aktivlarni hisobga olish yo'lga qo'yiladi. Xususan, chorvachilikdagi va o'simlikchilikdagi uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga olish, biologik aktivlarning eskirishi, biologik aktivlarning qadrsizlanishi

bo'yicha rezerv hisobi to'g'ri tashkil etiladi va foydalanuvchilar uchun batafsil axborot olish manbasi shakllantiriladi.

Xalqaro standartlarga uyg'unlashish maqsadida joriy biologik aktivlarni hisobga olish imkoniyati vujudga kelishi uchun "Qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti" schyotini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi aktivlar qismi Tovar-moddiy zaxiralar bo'limidagi "Qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti" schyotlarida quyidagilar hisobga olinadi:

«O'simliklar» (qisqa muddatli) schyotida joriy davrda hisobga olinadigan o'simliklar harakati hisobga olinadi, «Hayvonlar» (qisqa muddatli) schyotida o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi yuritiladi, «Yig'ish paytidagi qishloq xo'jaligi mahsuloti» schyotida yig'ishtirib olinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari harakati hisobga olinadi, «Biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv» schyotida biologik aktivlarning qadrsizlanishi hisobi yuritiladi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mazkur schyotlarning amaliyotga joriy etilishi, o'stirishdagi biologik aktivlar, boquvdagi biologik aktivlarni hisobini alohida yuritish, chorvachilik xo'jaliklarida joriy biologik aktivlar, yig'ish paytidagi qishloq xo'jaligi mahsuloti, biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv haqida aniq ma'lumotlarning shakllanishini va u asosida to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishini ta'minlaydi.

### Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida". 13.04.2016.
2. [IAS 41 "Agriculture"](#).
3. С.Б.Жабуева ва И.Б.Цыренова. Перспективы внедрения и методологические аспекты учета биологических активов. URL:<http://sibas.info/archive>
4. Фастова Е.В. Учет биологических активов по справедливой стоимости в соответствии с МСФО 41 «Сельское хозяйство» // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. -2007. -№1. -33-39 с.
5. Макулова А.Т., Бойболтаева Н.А. Проблемы учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции в Республике Казахстан в соответствии с требованиями МСФО (IAS) 41 «Сельское хозяйство». - Таврийский державний агротехнологический университет, 2014.
6. 16-son «Asosiy vositalar» nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

